



**O‘ZBEKISTON JINOYAT-PROTSESSUAL QONUNCHILIGIDA
XORIJIY SUD QARORLARINI TAN OLIISH: INSONPARVARLIK VA
XALQARO HAMKORLIKNING YANGI BOSQICHI**

Xoshimov Shoxruxbek Baxromjon o‘g‘li

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro huquq
fakulteti 2-bosqich talabasi*

E-Mail: xoshimovshohrux46@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga yangi kiritilgan 66-bobning mazmun-mohiyati va ahamiyati tahlil qilingan. Xorijiy sud qarorlarini tan olish mexanizmlari, mahkumlarni jazoni o‘tash uchun qabul qilib olish tartibi hamda ushbu islohotlarning inson huquqlarini himoya qilishdagi o‘rni yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Jinoyat-protsessual kodeksi, xorijiy sud qarori, tan olish va ijro etish, mahkumni berish, jazo adaptatsiyasi, insonparvarlik, sudlararo hamkorlik.*

Аннотация: *В статье анализируются суть и значение новой 66-й главы, введенной в Уголовно-процессуальный кодекс Республики Узбекистан. Освещены механизмы признания решений иностранных судов, порядок приема осужденных для отбывания наказания, а также роль данных реформ в защите прав человека.*

Ключевые слова: *Уголовно-процессуальный кодекс, решение иностранного суда, признание и исполнение, передача осужденного, адаптация наказания, гуманизм, межсудебное сотрудничество.*

Annotation: *The article analyzes the essence and significance of the new Chapter 66 introduced into the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan. The mechanisms for recognizing the decisions of foreign courts, the procedure for receiving convicted persons to serve their sentences, and the role of these reforms in the protection of human rights are highlighted.*

Keywords: *Criminal Procedure Code, foreign court decision, recognition and enforcement, transfer of a convict, adaptation of punishment, humanism, inter-court cooperation.*

04.12.2024 yildagi O‘RQ-1009-son²⁰ ya’ni “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga qo‘shimchalar va o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida” gi qonuniga asosan yangi bob qo‘shilishi to‘g‘risidagi qaror qabul qilingan. Yangi 66-bob “Xorijiy davlat sudining qarorini tan olish va ijroga qaratish. Ozodlikdan mahrum etilgan shaxsni jazoni o‘tashni davom ettirish uchun, shuningdek o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlor chorasi qo‘llanilgan shaxsni majburiy davolashni davom ettirish uchun qabul qilib olish va xorijiy davlatga berish” deb nomlanadi. Ya’ni ushbu bob asosida bizni qonunchiligimizga kerak bo‘lgan bo‘shliq to‘ldirilgan deb ham aytishimiz mumkin.

²⁰ 04.12.2024 yildagi O‘RQ-1009-son <https://lex.uz/ru/docs/-7247660#-7247738>





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Birinchi o'rinda bu yangilik nega kerak bo'ldi? degan savolga javob topsak.

Birinchi o'rinda fuqarolarning xorijdagi "sovuq taqdiri" ni oldini olish deb aytak bo'ladi. Tasavvur qilaylik, fuqaro Rossiy yoki Turkiyada jinoyat sodir etib qo'ydi, u yerda u tili, madaniyati hamda yaqinlaridan uzoqda jazoni o'taydi va u yerda mahbuslarga qilinadigan munosabat ham noma'lum. Shuning uchun Vatanimiz o'z fuqarolarini xorijiy qamoqxonalarda "tashlab qo'ymaslik", uni oilasiga yaqinroq keltirish hamdqa o'z vatanida tarbiyalashni maqsad qildi.

Ikkinchi o'rinda huquqiy bo'shliqni to'ldirish. Bu nima degani? Avvallari mahbuslarni vatanimizga olib kelish uchun sud qatnashmas edi ya'ni to'g'ri avvallar ham mahbuslar olib kelingan lekin bu prokuratura darajasidagi kelishuvlar bilan edi. Endi ushbu jarayon aniq qonun asosida sud tomonidan hal qilinadi.

Uchinchidan, jazo muqarrarligi. Ayrim fuqarolar xorijda jinoyat qilib, O'zbekistonga qochib kelishadi. Konstitutsiya bo'yicha biz o'z fuqaromizni xorijga tutib bermaymiz. Endi u jazosiz qoladimi degan savol tug'iladi. Endi xorijiy sud hukmi asosida uni o'zimizda jazolash imkoni paydo bo'ldi.

Undan tashqari O'RQ-1009-sonda aytiladiki, ushbu qonun xorijdagi fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklari samarali himoya qilinishini kuchaytirishga, milliy qonunchilikda ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarni hamda o'ziga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilgan shaxslarni qabul qilib olish va berish tartibining normativ-huquqiy asosini shakllantirishga hamda ularga belgilangan jazoni o'z davlatida o'tash imkoniyatini berish orqali ijtimoiy reabilitatsiya qilinishini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Endi yangi qo'shilgan JPK 66-bobidagi²¹ moddalarni hamda yangiliklarni ko'rib tahlil qilib chiqsak. Birinchi o'rinda ushbu bobdagi moddalarni 4 guruhga bo'lib chiqsak ham bo'ladi.


1. Tan olish va qabul qilish asoslari (610–612-moddalar)
2. Protsessual jarayon va jazo tayinlash (613–615-moddalar)
3. Ijro va o'zgartirish tartibi (616–617-moddalar)
4. O'zbekistondan shaxslarni berish (618–623-moddalar)

Endi ushbu moddalarni ko'rishni irinchi guruhdan boshlaymiz.

Tan olish va qabul qilish asoslari:

Xorijiy sud qarorlarini tan olish JPK 610-moddasida keltirilgan hisoblanib ushbu modda bevosita ushbu bobning "darvozasi" vazifasini bajaradi. Undan tashqari ushbu modda O'zbekiston suverenitetining xalqaro huquq bilan o'zaro kelishuv nuqtasidir. Ilgari xorijiy hukm biz uchun shunchaki "qog'oz" edi, endi esa u yuridik faktga aylandi. Aynan ushbu moddada xorijiy sud qarorlarini tan olish va ijro etish qaysi hollarda bajarilishi keltirib o'tilingan. 611-modda shuni ifodalaydiki, faqat sog'lom mahbuslar emas, balki ruhiy holati buzilgan mahbuslarni ham qonun himoyasiga olishni nazarda tutadi. Ya'ni nafaqat sog'lom mahbuslar chet davlatga berilshi yoki yurtimizga qatarib olib kelinishi balki ruhiy holati

²¹ Jinoyat-protsessual kodeks 66-bob <https://lex.uz/docs/-111460#-7250851>





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

buzilgan hamda tibbiy yo'sindagi majburlov chorasiga duchor etilgan mahbuslar ham xorijiy davlatga berilishi yoki olib kelinishi mumkin. Ushbu moddadagi yangilikni aytib o'tsak, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari xalqaro darajada tan olish — bu tibbiy-huquqiy integratsiyadir. Bu shaxsni qiynoqdan (begona muhitda davolanishdan) qutqarish uchun kiritilgan insonparvarlik instrumentidir. 612-moddada mahkumlarni qabul qilib olish shartlari keltirilgan hisoblanadi. Ushbu moddaga ko'ra:

- shaxslarni O'zbekiston Respublikasi tomonidan qabul qilib olishga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni o'tayotgan yoki majburiy davolanishda bo'lgan shaxsning yoxud uning qonuniy vakilining yoki yaqin qarindoshining arizasiga ko'ra
- qabul qilinayotgan shaxsning yoki uning qonuniy vakilining roziligi bilan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining yoki xorijiy davlat vakolatli organining so'roviga ko'ra yo'l qo'yiladi.

Protsessual jarayon va jazo tayinlash:

JPK 613-moddasida eng asosiy protsessual tartiblar keltirilgan hisoblanadi, ya'ni mahkumlarni qabul qilib olish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqish. Ushbu moddada Bosh prokuratura va Sud o'rtasidagi vakolatlar aniq chegaralab berilgan: prokuratura hujjatlarni to'playdi va fuqarolikni tekshiradi, lekin yakuniy nuqtani Sudya qo'yadi. Ushbu modda oxirgi bandiga e'tibor beradigan bo'lsak, "Mahkumning yoki o'ziga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov chorasi qo'llanilgan shaxsning yo'qligi xorijiy davlat sudining qarorini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi iltimosnomaning sud tomonidan ko'rib chiqilishiga to'sqinlik qilmaydi" ushbu band ham yangilik hisoblanadi chunki buning amaliy qulayligi – mahkumning sudda ishtirok etishi shart emasligidir. Tasavvur qilaylik, mahkum xorijiy davlat qamoqxonasida o'tiribdi, uni olib kelish uchun katta xarajat va vaqt talab etiladi. Yangi tartibga ko'ra, sud iltimosnomani mahkumning yo'qligida ko'rib chiqib, hukmni tan olish haqida ajrim chiqaradi. Bu esa davlat budjetini asrash hamda protsessni bir necha oyga tezlashtirishning namunaviy tejamkorlik asosidir. 614-modda ushbu bobning eng muhim qismi deb aytib o'tsak bo'ladi. chunki aynan shu yerda xorijiy hukmni milliy qonunchilikka adaptatsiya qilish (moslashtirish) mexanizmi bayon etilgan. Hamda ushbu moddada yangiliklar ham mavjud. Ushbu moddadagi yangilik shundan iboratki, sudga xorijiy hukm ustidan "huquqiy qaychi" ishlatish vakolati beriladi. Agar chet el sudi bizning fuqaromizga O'zbekiston Jinoyat kodeksida ko'zda tutilganidan og'irroq jazo tayinlagan bo'lsa, sud uni bizdagi ***maksimal chegara*** darajasiga tushiradi. Masalan, xorijda 15 yil berilgan bo'lsa bizda shu jinoyat uchun eng yuqori jazo 10 yil bo'lsa, mahkum O'zbekistonda 10 yil o'taydi. Shuningdek, agar xorijiy hukmda bizda jinoyat sanalmaydigan qilmishlar ham bo'lsa, sud ularni chiqarib tashlaydi. 615-moddada Sud ajrimi haqida yozilgan, lekin asosiy e'tibor berib qaraydigan jihat ham mavjud hisoblanadi. Ya'ni sudning xorijiy davlat hukmini tan olish hamda ijro etishning rad etish asoslari mavjud. Ular:





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

• Agar chet elda shaxs jazolangan qilmish O‘zbekiston qonunlari bo‘yicha jinoyat hisoblanmasa (masalan, u yerda jinoyat bo‘lgan ish bizda ma‘muriy huquqbuzarlik bo‘lishi mumkin).

- Muddati o‘tganlik
- Davlat xavfsizligi: Eng muhimi — agar xorijiy hukmni tan olish O‘zbekistonning manfaatlariga, suverenitetiga yoki xavfsizligiga zarar yetkazsa. Bu band siyosiy o‘yinlar aralashgan hukmlardan davlatimizni himoya qiladi.

Ijro va o‘zgartirish tartibi

616-617-moddalar xorijiy sud hukmi tan olingandan keyin amaliy hayotni tartibga soladi. 616-moddada jazoni tashkil etish tartibi keltirilgan hisoblanib, undan tashqari e‘tibor berishimiz kerak bo‘lgan boshqa jihat ham mavjud. Mahkumga nisbatan bizning qonunchiligimizdagi Amnistiya, Afv etish yoki muddatidan ilgari shartli ozod qilish (shartli ozodlik) imtiyozlari qo‘llanilishi mumkin. Bu mahkum uchun "ikkinchi imkoniyat" va vatanida qayta sog‘lom hayotga qaytish uchun ulkan imkoniyatdir. 617-moddada aytilganki, xorijiy davlat sudining qarorini qayta ko‘rib chiqish bilan bog‘liq har qanday masalalar mazkur davlatning sudi tomonidan hal qilinadi. Ushbu modda vakolatlarning nozik chegarasi hisoblanadi. Nega? Biz jazoni o‘tash muddatini boshqaramiz, lekin hukmni bekor qilish yoki shaxsni butunlay aybsiz deb topish faqat o‘sha hukmni chiqargan davlatning haqqi bo‘lib qoladi. Bu xalqaro huquqdagi "**sudlararo hurmat**" prinsipining amaldagi isbotidir.

O‘zbekistondan shaxslarni berish

618-619-620-moddalarda xorijdagi mahbuslarni bizning davlat qanday qabul qilib olishining protsessual tartiblari keltirilgan va u aynan bizning teskarisi hisoblanadi. Eng e‘tibor berishimiz kerak bo‘lgan mdda bu 621-modda. Chunki ushbu moddada muhim yangiliklardan biri mavjud. Ushbu moddaning mavzumi mahkumlarni xorijiy davlatga berishni rad qilish hisoblanadi. Ushbu modda 6-bandi shunday keltirilgan:

- ozodlikdan mahrum etilgan shaxsni berish to‘g‘risidagi so‘rov olingan paytda ozodlikdan mahrum qilish jazosining o‘talmay qolgan qismi olti oydan kam bo‘lsa;

Ushbu band nima degani? Agar mahkumning jazo muddati tugashiga 6 oy qolgan bo‘lsa, uni xorijiy davlatga berish rad etiladi. Bu shunchaki qog‘ozbozlik emas, balki iqtisodiy mantiqdir — hujjatlarni tayyorlab, shaxsni etap qilib (ko‘chirib) olib borguncha o‘sha 6 oy o‘tib ketishi mumkin. Shuning uchun 621-moddaga ushbu norma qo‘shilgan. 622-modda esa shaxs vataniga borgach, aynan o‘sha jinoyati uchun ikkinchi marta sudlanmasligini kafolatlaydi. Bu qoidalar to‘plami O‘zbekistonning nafaqat o‘z fuqarolarini qaytarib olishga, balki chet ellik mahkumlarga ham insonparvarlik munosabatida bo‘lishga tayyor, zamonaviy va ochiq huquqiy davlat ekanini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu yuqorida tahlil qilib chiqilgan yangi JPK ning 66-bobi O‘zbekiston Respublikasidagi qonunchilikning ma‘lum bir bo‘shliqlarini to‘ldirgan hamda rang barang tus bergan deb bemalol ayta olsak bo‘ladi. Yuqorida ushbu bob o‘zi nega qabul





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

qilinganligini va har bir moddaning tahlili hamda yangiliklari sanab o'tildi va har bir moddadagi band juda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

